

MILLIY TIL VA ADABIY TIL

Aslanova Marjona Azamatjonovna,

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi

Yusupov Sardor Shodi o'g'li, ilmiy rahbar,

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası assistenti

aslonovlazz6@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy va adabiy tilning bir-biri bilan aloqasi, ularning qo'llanilish doirasi haqida ma'lumotlar keltirilib o'tiladi. Milliy tilning adabiy tildan ko'ra kengroq doirada ishlatilishi, bir so'z bilan aytganda, adabiy til ham milliy tilning bir qismi ekanligini hisobga olib, ularning xalq turmush tarzi, qadriyatları, madaniyatini aks ettiruvchi vosita sifatida ko'rsatilishi to'g'risida fikr yuritildi.

Kalit so'zlar. Milliy til tushunchasi, adabiy til, adabiy til shakllari.

MILLI DIL VE EDEBI DIL

Aslanova Marjona Azamatjonovna,

Özbekistan-Finlandiya pedagoji enstitüsü öğrencisi

Yusupov Sardor Shodi o'g'li,

Bilimsel danışman, Özbek Dili ve Edebiyatı Bölümü asistanı

Özet. Bu makalede, milli dil ile edebi dilin birbirleriyle olan ilişkisi, kullanım alanları hakkında bilgiler sunulacaktır. Milli dilin, edebi dilden daha geniş bir kullanım alanına sahip olduğu, kısaca edebi dilin de milli dilin bir parçası olduğu göz önünde bulundurularak, bu dillerin halk yaşam tarzı, değerleri ve kültürünü yansıtan araçlar olarak gösterileceği tartışılacaktır.

Anahtar kelimeler. Milli dil kavramı, edebi dil, edebi dil biçimleri.

НАЦИОНАЛЬНЫЙ ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРНЫЙ ЯЗЫК

Асланова Маржона Азаматжоновна,

студентка Узбекско-Финского педагогического института

Юсупов Сардор Шоди угли,

научный руководитель ассистент кафедры узбекского языка и литературы

Аннотация. В данной статье будет рассмотрена связь между национальным и литературным языком, а также их области применения. Учитывая, что национальный язык используется в более широком диапазоне, чем литературный, и что литературный язык является частью национального языка, будет рассмотрено, как эти языки служат средствами отражения народного образа жизни, ценностей и культуры.

Ключевые слова. Понятие национального языка, литературный язык, формы литературного языка.

NATIONAL LANGUAGE AND LITERARY LANGUAGE

Aslanova Marjona Azamatjonovna,

student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute

Yusupov Sardor Shodi o'g'li,

scientific advisor, assistant of the Department of uzbek language and literature

Annotation. *This article discusses the relationship between the national language and the literary language, as well as their areas of application. It is highlighted that the national language is used in a wider scope than the literary language, and that the literary language is considered a part of the national language. The article will explore how these languages serve as tools to reflect the people's way of life, values, and culture.*

Keywords. *Concept of the national language, literary language, forms of literary language.*

Milliy til – umumiy iqtisod va manaviy boylik bilan birga millatni tashkil etuvchi ijtimoiy-tarixiy kategoriya hisoblanadi. Xalqning o‘zaro aloqa vositasi hisoblangan milliy til ikki shaklga, ya’ni og‘zaki va yozma shaklga egadir. Milliy tilning shakllanishidagi eng oliy bosqich milliy adabiy til hisoblanadi. Ammo milliy til adabiy tildan farqlanib, og‘zaki nutq va xalq shevalarini ham o‘z ichiga oladi.

Adabiy til – tarixan tarkib topgan, qat’iy me’yorlarga bo‘ysunuvchi, so‘zlashuvchilarning qaysi hududda yashishidan qat’iy nazar barchalari uchun tushunarli va umumiy bo‘lgan til sanaladi. Professor A.Anorbekova adabiy til tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Adabiy til – barchaga tushunarli bo‘lgan so‘zlar, qo‘shimcha, ibora va gaplardan iborat bo‘ladi. Adabiy til qoidalari – me’yorlarini belgilash uchun tilshunos olimlar sheva va lahjalarini o‘rganadilar, umumga tushunarli til xususiyatlarini belgilab, an’anaviy adabiy til qonun-qoidalarini ham hisobga olib, zamonaviy adabiy tilni va uning me’yorlarini belgilaydilar. Adabiy tilda adabiy, ilmiy asarlar yoziladi. Bu til matbuot, adabiyot va ilmiy asarlar tili, ma’ruzalar, so‘zlashuv tili bo‘lib qoladi” [1, 12 b.].

Adabiy til har qanday tilning oliy shakli sanaladi va lug‘at tarkibining boyligi, grammatik qurilishining tartibga solinganligi, qat’iy me’yorlarga amal qilishi, uslubning rivojlanganligi bilan muhimdir. Adabiy til yozma va og‘zaki shakllarga ega bo‘ladi. Og‘zaki adabiy til ko‘proq so‘zlashuv uslubida ishlatiladigan, ommaviy axborot vositalari (radio, televideniye)da ishlatiladigan til hisoblanadi. Yozma adabiy til esa, rasmiy, ilmiy, publitsistik va badiiy uslublarda ishlatiladigan tildir. Adabiy tilning yozma shakli og‘zaki shaklga qaraganda til taraqqiyotining keyingi bosqichlarida joriy qilingandir. Adabiy tilning yozma shakllarida orfografik va tinish belgilariga oid qoidalarga amal qilinadi. Adabiy til milliy tilning negizida shakllanadi va bu uning nisbatan barqarorligini ta’minlaydi. Milliy til ijtimoiy-tarixiy kategoriya hisoblanib, muloqot vositasi bo‘lgan tilni ifodalaydi. M.Mirzayev: “Adabiy til – umumxalq tilidan yasalgan guldasta”, – deb baho bergan edi. “O‘zbek adabiy tili sheva va lahjalar bir butunligidan iborat bo‘lgan o‘zbek milliy tilidan farqlanadi. O‘zbek adabiy tili o‘zbek millatiga tegishli bo‘lgan milliy tilning tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy til bilan adabiy til orasidagi aloqa butun-qism, umumiylik-xususiylik munosabatidek bo‘ladi” [2, 15 b.]. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining taraqqiyotini belgilovchi omillar ikki xildir. Bular: lingvistik omillar (lisoniy) va ekstralingvistik (nolisoniy) omillar hisoblanadi.

Professor Hasanboy Jamolxonov bu ikki omilga quyidagicha ta’rif beradi: “Lingvistik (lisoniy) omillar – muayyan tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatlari, fonemalar tizimi, lug‘at boyligi, morfema tiplari, so‘z yasash modellari, grammatik qurilishi, ular o‘rtasidagi aloqa va munosabatlarni belgilovchi qoida va qonuniyatlar kiradi. Adabiy til taraqqiyoti birinchi navbatda, shularga tayanadi. Ekstralingvistik (nolisoniy) omillar - tildan tashqarida mavjud bo‘lgan faktorlar kiradi. Ijtimoiy tuzum formalari, tarixiy jarayonlar, xalqlar va millatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma’rifiy aloqalar va shular jumlasidandir” [4, 7 b.]. Keltirilgan ma’lumotlardan bilishimiz mumkinki, milliy adabiy tilning, jumladan, milliy adabiy tilning taraqqiyotida lisoniy va nolisoniy omillar muhim ahamiyatga egadir. Ularning biri ikkinchisi uchun sharoit yaratib beradi.

Milliy til – millatning ko‘zgusi hisoblanadi. Unda millatning ruhi, qalbi, hayoti va uning bor boyligi aks etadi. Milliy tilning rivoji millat taraqqiyotining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Demak, milliy til qanchalik rivojlanib borar ekan, millatning taraqqiyoti ham shunchalik rivojlanib boraveradi. Milliy til ma’lum bir davr mahsuli hisoblanadi. U o‘z tarixini bizgacha yetib kelgan eng qadimgi yozma yodgorliklar tilidan boshlagan.

Adabiy til tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, adabiy til hamma davrlar uchun bir xil bo'lmaydi. Har bir davrning o'z adabiy til me'yorlari bo'ladi. Adabiy til xalq og'zaki nutqi asosida shakllanadi. Xalqning tiliga xos shevalarni umumlashtiradi va o'sha barcha sheva vakillari uchun tushunarli bo'lgan shaklni oladi. Milliy til bilan adabiy tilning bog'liqlik jihatlari shundaki, agar milliy til shakllanmasa adabiy til ham shakllanmaydi. Sababi adabiy til asosini milliy til tashkil qiladi. Adabiy til bilan milliy til o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik jihatlari ularning umumiy mushtaraklik, xususiyatlari bilan birga farqli tomonlari ham bir, albattta. Adabiy til sayqallangan, me'yorlash-tirilgan, grammatik qolipga solingan til shakli hisoblanadi. Milliy til adabiy til vazifasini o'tay oladi, lekin adabiy til milliy til vazifasini otay olmaydi. Adabiy til istalgan faoliyat sohasining kommunikativ ehtiyojlarini qondirishga qodir. Milliy til esa bunday xususiyatga ega emas. Adabiy til tarmoqlangan vazifaviy uslublarga ega bo'ladi.

Milliy til tushunchasining hajmi va qo'llanilish doirasi keng bo'lib, o'z ichiga lahja va shevalarni ham qamrab oladi. Bilamizki, shevalar adabiy til tushunchasiga kirmaydi, biroq ular tilning quyi shakli va tarmoqlari hisoblanadi va adabiy tilning boyishi uchun xizmat qiladi. Adabiy til me'yorlarining takomillashishi, fan va madaniyatning taraqqiyoti va shahar bilan qishloqning o'rtasidagi tafovutlar kamayib borishi oqibatida shevalar ham asta-sekin o'z xususiyatini yo'qota boradi. Sheva bir millatga mansub, lekin turli hududlarda yashaydigan kishilar tomonidan ishlatiladigan milliy til ko'rinishi hisoblanadi. Shevalarning bir-biriga yaqin bo'lgan guruhlari lahja deb ataladi. O'zbek milliy tili tarkibida lahjalar soni 3 ta:

1. Qarluq lahjasi (janubiy-sharqiy)
2. Qipchiq lahjasi (janubiy-g'arbiy)
3. O'g'uz lahjasi (shimoliy-g'arbiy)

Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun qarluq lahjasiga kiruvchi shevalar asos qilib olingan. Shevalardan so'z olish hozirgi o'zbek adabiy tilining ichki imkoniyati deb qaraladi. Shevalar tilning ichki tomondan boyishiga yordam beradi.

Adabiy til madaniyatning bir ko'rinishi hisoblanadi. Adabiy til rivojlanishi bilan madaniyat ham rivojlanadi. Rivojlanmagan adabiy til bilan boy madaniyatga erishib bo'lmaydi. Adabiy so'zlashuv nutqi – adabiy til madaniyatiga, ya'ni adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda gapirishdir. Nutq madaniyatining asosini adabiy til tashkil qiladi. Adabiy nutq malakasiga – adabiy til normalarini egallash orqali erishiladi. Nutq madaniyatini egallash – nutq madaniyati ko'nikmasini hosil qilish orqali yuzaga keladi. Adabiy til va uning me'yorlari va ulardan foydalanish haqidagi qoidalar barcha uchun birdek majburiydir. Adabiy til me'yorlariga amal qilish orqali madaniyatimiz boyishiga hissa qo'shamiz. "Nutq madaniyatining birinchi bosqichi hisoblanmish nutqning to'g'riligi kommunikativ sifati uning adabiy til me'yorlariga muvofiqligi bilan belgilanadi. Adabiy til me'yorlarining tavsifiy tilshunoslik fanlariga oidligini inobatga olsak, hozirgi o'zbek tilining, aytaylik, normativ grammatikasi nutq madaniyatining asosiy zamini ekanligi ayon bo'ldi" [4, 19 b.].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, milliy til adabiy tilning mustahkam poydevori hisoblanadi. Milliy til shakllanishi bilan adabiy til ham shakllanadi. Milliy tilsiz adabiy tilning o'zi bo'lmaydi. Ularning biri ikkinchisiga sharoit yaratib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Anorbekova A. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent, "NOSHIR", 2011, 336 b.
2. Sayfullayeva R. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent, 2009, 418 b.
3. Jamolxonov H. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent, "Talqin", 2005, 260 b.
4. Hamidov A. "Nutq madaniyati". Termiz, 2013, 54 b.